

BUGUNGI AVLOD BOSHQACHA YOXUD "QO'RQMAY YUZIMGA TARSAKI TORTDI"

Xoliqova Iroda Norbo'tayevna
Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili Javlon Jovliyevning **"Qo'rqma"** romani misolida kitobxonlik madaniyati, tarixiy xotira va milliy o'zlikni anglash masalalari tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda kitobxonlar orasida keng e'tirof etilish omillari yoritilgan. Shuningdek, roman orqali jadidlar merosi, Vatanga muhabbat, yoshlar tafakkuri va ma'naviy kamolot g'oyalari ochib beriladi. Muallifning kitobxonlar bilan ijodiy uchrashuvida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida asarning zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini va tarbiyaviy-estetik ahamiyati ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: *Javlon Jovliyev, "Qo'rqma" romani, kitobxonlik, mutolaa, tarixiy xotira, jadidlar, milliy o'zlik, Vatanga muhabbat, ma'naviyat, zamonaviy o'zbek adabiyoti, adabiy jarayon, yoshlar, badiiy tahlil, roman poetikasi.*

Kirish. Bizning davr tezlik davri, tinchlik-totuvlik davri, havas qilsa arzigulik erk davri! Tog'ay Murod ta'biri bilan aytganda, "ahay-ahay" davrda umrguzaronlik qilyapmiz. Eh, shunday hurriyat zamonasida kitob o'qish san'atini ehtiyojga aylantirish uchun yana necha yillar, qancha tarix, qanday hurlik kerak bizga? Bu bilan millatimni tamomila kitobsizlikda ayblashdan yiroqman. Qolaversa, kitobga oshufta dillar haqida ham quyida to'xtalib o'taman. Biroq hozir bu millat uchun yanada ko'proq ma'rifat istayotganimni ta'kidlamoqchiman xolos. Inson ekanmiz, ko'ngilga doim asirmiz. Xazinalar kalitini xasta ko'ngillarning davosi, oromi ekanligini kitob o'qigandan bir so'rang. O'ylab ko'rsam, kitobning ta'riflari haddan ziyod. Shu bois men unga biroz g'aliz bo'lsa-da, "eng og'ir yuk" deb ta'rif berishga qaror qildim. Ha,

faxmlaganingizdek, uni ko‘tarishga hammaning ham quvvati yetmaydi. Ustoz Qozoqboy Yo‘ldoshevning bir so‘zlari yodimga tushadi. ”Kitob o‘qib dam olaman, degan gaplarga ishonmayman”. Darhaqiqat, kitob o‘qish degani yumshoq o‘rindiqlarda o‘tirib, kino ko‘rish emas. Tafakkurni yuksaltirish, ahloqni mukammallikka olib chiqish, odamiylikda tengsizlikka erishish osonmi sizningcha?! Aslo! Ko‘ryapsizki, kitobning yuki o‘ylaganingizdan ancha og‘ir. Lekin millatning yuksalishi yo‘lida kitob tutgan qo‘llarga shu qadar ehtiyojimiz borki, zero ular qorong‘i yo‘limizni yoritguvchi shamchiroq kabidir. Tarixdan ma‘lumki, kitob o‘qib kamolotga yetishgan, jahon tan olgan Navoiy, Fitratlarning vorislarimiz. Lekin qachongacha dunyo bizni faqat ular uchun olqishlaydi?! Ajdodlarimizga munosib izdosh bo‘lolmaymizmi? Andisha qiladigan fursat yetmadimi?

Asosiy qism. Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari ham mutolaa zavqining jo‘shishiga ilhom bermasdan qolmaydi: ”Kitob o‘qigan, o‘zining ustida ishlagan odamda qanot bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. ”Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o‘qinglar deymiz. Kitob o‘qisangiz, savol berishni bilasiz”.

Darhaqiqat, mamlakatimiz rahbarining kitob mutolaasi yo‘lidagi targ‘ibotlari bugun o‘z mevasini beryapti. Yosh, umidli ijodkorlar uchun turli mukofotlar ta’sisi, ko‘plab adabiy davralar, kitobxonlik tanlovlari tashkillashtirilyapti. Bunday rag‘batlar, o‘z samarasi bilan bizni quvontira boshladi. Tuyg‘ulari samimiy, bitiklari ko‘ngildan yoziladigan, yosh ijodkorlarimizdan biri Javlon Jovliyev dastlab ”Buxoro, Buxoro, Buxoro”, ”Lobar, Lobar, Lobarim mening” kabi bir nechta hikoyalari orqali kitobxonlar e’tiboriga tushgan bo‘lsa, ”Qo‘rqma” romanidan so‘ng esa katta auditoriyaning e’tirofiga ham sazovor bo‘ldi.(1) Muallif talabalik yillari bir asr oldingi Germaniyaga ketgan yoshlar haqida eshitadi. Shu kundan e’tiboran ularning dard-u dunyosi bilan yashay boshlaydi. Tinimsiz o‘qiydi, izlanadi, arxiv titkilaydi va ularni unutishga bugungi avlodning haqqi yo‘qligini aqlidan chiqara olmaydi. Bu o‘ylar

unga hech tinchlik bermas, aksincha qator uyqusiz tunlarni hadya etardi. Yuz yil oldingi talabalarni avvalo o'zidan, so'ngra yon-atrofidan qidira boshlaydi. Nadomatlar bo'lsinki, sog'-u so'li maqsadsiz, umidsiz, mudroq talabalar bilan to'la edi. Ularni ko'rib, aqli shoshdi, ruhiyatida po'rtanalar qo'pdi va to'rt yil davomida talabalar yotoqxonasi, ijaraxonalar, qishloqlar kezgan yozarman dardli bir asarni dunyoga keltirdi. Ulug'bek Hamdamov aytganidek, asardagi mahsulot yozuvchi ruhiyatiga ko'chib, u yerda ma'lum muddat yashab, obdon toblanmas ekan, u bugun kitobxonning qo'lida uzoq qolishi dargumon. Bugunning kitobxonini zabt eta oladigan asarlar yaratish ijodkorlardan yaxshigina mehnatni, sabr-toqatni, bilimni, salohiyat va qobiliyatni talab etyapti. Shunday asar yaratish lozimki, kitobxon uni bir hamlada hazm qilib, yutib yubormasin. "Qo'rqma" domla aytganlaridek, muallifning fikr-u shuurida bir muddat yashadi, so'ngra kitobxonlar qo'lidan qalbiga ko'chib, ko'ngillarni zabt eta oldi. Tug'ildi-yu shu on shoshirdi. Ayni paytda uni bir luqmada hazm qilib ham bo'lmas edi. Asarni muqovasiga qarab sotib olishadi, mazmuniga qarab baho berishadi. Dastlab "Qo'rqma"ning muqovasi va nomlanishi kitobxonlarning diqqatini tortgan bo'lsa, uning mazmunini anglash uchun tafakkurni titkilashga va shuurni uyg'otishga to'g'ri keldi. Juda qisqa vaqt ichida qo'lma-qo'l bo'lib ulgurgan asar Bahodir Karimov ta'kidlaganidek, taqdirlar, tahqirlar, ta'bir va tadbirlar romani bo'ldi.(2) Unda tarix, ingranish, chorlov, nadomat, nafrat, mehr-muruvvat mujassam. Yozuvchi uni yozar ekan, "Ruhiy mashg'ulot"ni boshidan o'tkazgan. Aks holda, asar bu darajada qalblardan o'rin ololmas edi. 2021-yilda tug'ilgan "Qo'rqma" qariyb to'rt yil bo'lyaptiki, o'qirmanlar qo'lidan tushgan emas. So'nggi yilda yaratilgan romanlar orasida talabgori eng ko'p kitob ham aynan "Qo'rqma" bo'ldi. Asar muallifi bilan ko'plab adabiy uchrashuvlar bo'lib o'tdi va hali ham davom etyapti. Ana shu kabi uchrashuvlardan birida men ham ishtirok etdim. Unda roman muallifining ham ishtiroki barcha kitobsevarlarga ko'tarinki kayfiyat va o'zgacha ruh bag'ishladi. U yerda kitobxon yoshlarimizning quvonchdan porlagan ko'zlarini, qalblaridagi otashni, dukkillab turgan yuraklarida his-hayajonni topishingiz mumkin edi. Auditoriya deyarli yoshlardan tashkil topgani uchunmi, suhbat shunday qizg'in tus oldiki,

soatimiz bongini ham tuymadik. Suhbat asnosida aqlimnimi, qalbimnimi bilmayman, xullas, ichimni allanechuk tug‘yonli hislar bo‘roni qurshab oldi. Balki hozir buni so‘zlar bilan sizga ifoda etib berolmayotgandirman. Bu tuyg‘ular uka-singillarimning (yoshlarimiz desam, ulardan uzoqlashgandek bo‘laman) qo‘llarida kitobni quchoqlab olganidanmi yoki ularning shavqqa to‘la so‘zlarini tinglab uyg‘ondimi, gapning rosti, farqlolmadim. Biz orzu qilgan kelajak, ota-bobolarimiz istagan avlod, Javlon Jovliyev so‘zlari bilan aytganda, haqiqatning ko‘zlaridan qo‘rqmaydigan, dadil vorislarimizning aynan o‘zi edi.

Romanni qo‘ltiqrab olgan bu kitobxonlarni, avvalo, o‘qishga, uni tahlil qilishga, o‘zlariga turli xulosalar chiqarishga, yozuvchiga nega uyg‘oq qizlar obrazini asarga kiritmadingiz, deya turli savollar bera olishga sababchi bo‘lgan ”Qo‘rqma”ga qo‘rqmasdan o‘z minnatdorligimni aytmoqchiman. Demak, biz o‘qiganmiz, o‘qiyapmiz va o‘qiy olamiz ham.

Gyote aytganidek: ”Har qanday yaxshi fikr yaxshi aytiladi, qanday aytilishni emas, balki nimani aytishni o‘ylang”. Hayot va tarix imtihonidan o‘tgan bu purma’no so‘zlar ayni kunlarimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Javlon ana shu ”nima”ni aytishni bildi va ko‘p sonli o‘quvchilarning e’tiboriga tusha oldi. O‘ylaymanki, yozuvchi ushbu kitobni yozishdan oldin qanday maqsad qo‘ygan bo‘lsa, erisha oldi. Suhbat avvalida ijodkor o‘tmishdagi 70 talabalarning ruhini shod etib, ularni bugungi kun talabalariga ko‘rsatishni, to‘g‘rirog‘i, tanitishni va bu o‘zining oldidagi oliy vazifasi deb bilganini va buni qaysidir ma’noda ado etganidan mamnuniyatini izhor etdi. Quyida o‘sha suhbatdan namunalarni e’tiboringizga havola etaman.

Kitobxon: Men asarni 4 kunda bitirdim va o‘ylaymanki, bu mendek dangasa talaba uchun ishonilmas natija. Dastlab, asar haqida ijobiy fikr eshitmaganman. Shunday bo‘lishiga qaramay, kitobni sotib oldim. Bilasizmi, talaba holimda yuzimga tarsaki urilgandek bo‘ldi. O‘zimni bosh qahramon bilan birgalikda tush ko‘rayotgandek his etdim. Kitob uchun tashakkur aytmoqchiman va yana shu singari kitoblar kutib qolaman.

Ijodkor: Har bir yozuvchi asarining oldiga qo‘ygan o‘z maqsadi bo‘ladi, men sizlarni ko‘rib qaysidir ma’noda vazifamni bajardim deb o‘ylayman. Har bir roman inson umri singari o‘z umri bilan tug‘iladi. Biz xohlaymizmi, yo‘qmi, uni kuchli tanqid ham sindirolmaydi va aksincha, kuchli maqtov ham zo‘r qila olmaydi. Ko‘rib turibman, sizlar ijodkor yoshlarsiz, hamma har xil fikr aytadi, lekin ijod qilishda, avvalo, o‘zingizga quloq tuting. Shunda barcha tanqidlar ortingizga qolib ketadi.

Agar biz ko‘p o‘qisak, ko‘p izlansak, ko‘p yozsak, yanada o‘samiz. Adabiyotda shunday qoida bor, o‘qimayapsiz, ishlamayapsiz, o‘rganmayapsiz, chalg‘iyapsizmi, orqaga ketishni boshlaysiz. Sohangizni eng zo‘ri bo‘lishni istasangiz, mehnatdan, ijoddan to‘xtamang!

Kitobxon: Siz bu kitobni yozganingizda Germaniyaga borish orzuyingiz ekanligini aytgan bo‘lsangiz, bu kitobni biz o‘qiyotganimizda orzuyimiz siz bilan uchrashish bo‘ldi. Bugun juda xursandmiz, chunki bu baxt nasib etdi. Savoldan oldin asar haqida qisqacha fikrimni aytmoqchiman. Ushbu asar xalqimiz tarixini, achchiq haqiqatlarini ochib bergan. Xalqimizga nisbatan bo‘lgan tajovuzkorona siyosat ko‘rsatib berilgan. 2023-yilda talabalik baxtiga muyassar bo‘ldim va ustozimiz bizga o‘qilishi kerak bo‘lgan kitoblar ro‘yxatini berdi. Birinchi qatorda Javlon Jovliyevning ”Qo‘rqma” asari turar edi. So‘ngra muallif haqida ma’lumotlar to‘plashga qiziqdim va googledan sizning 1991-yilda tavallud topganingizni ko‘rib, shoshib qoldim. Mustaqillik farzandi, yosh holida qanday bunday asar yozish mumkin, deya ustozimga murojaat qildim. Ustozim avval asarni o‘qib kel, keyin fikrlashamiz dedi. ”Qo‘rqma”ni o‘qidim, garchi tarixchi bo‘lsam-da, menga tarixni o‘qitdi va kelajak uchun menga nishona bo‘ldi. O‘zimning soham bo‘yicha Germaniya diplomatiyasini o‘rgandim. Men har bir asarni o‘qiganimda, o‘sha asarga alohida o‘zim nom beraman. ”Qo‘rqma” uchun ”Zafar sari safar” deb nom berganman.(3) Buning ma’nosi shuki, bir asr oldingi jadidlar Germaniyaga o‘qishga ketgan va zafar quchish uchun safarga otlangan.

Savolga keladigan bo‘lsak, hozir ham o‘qiydigan yoshlarimiz bor, lekin o‘sha yoshlarni bir safga yig‘ish uchun jadidlar yetishmayaptimi yoki ularga ergashadigan darajadagi yoshlar yetishmayaptimi? Yaqinda

Germaniyaga bordingiz. Germaniya yoshlari bilan bizning qanday farqimiz bor ekan?

Ijodkor: Germaniyadagi 12 kunlik safar, tabiiyki, yoshlarning salohiyatini bilish uchun juda kam vaqt. Lekin shuni bildimki, sen ”3-sort” mamlakatsan, Germaniya juda zo‘r, sen unday, boshqalar bunday degan gaplar xato. To‘g‘ri, bizda illatlar ko‘p bo‘lishi mumkin, lekin hech kimdan kam emasmizligimizni angladim. Germaniyada ham shu hayot, odamlar shu. Biz u yerda 20 dan ortiq o‘zbek yoshlari bilan suhbat qurdik. Ularning ko‘zida baxtiyorlik ham bor, mung, qayg‘u ham bor. Ya’ni Vatan sog‘inchi qiynab turganini sezish qiyin emas. Zero, uning Vatani uyi, ota-onasi, yaqinlari, do‘stlari. Germaniya ideal emas, lekin zalolatga botmagan. Biroq eng zo‘ri, albatta – Vatan. Shu maqsadda har bir inson Vatan, millat tushunchalarini his qilsa, nafsini tiysa, eng kuchlisi bo‘la oladi. Bugungi avlod boshqacha! Bizga mo‘rt avlod, o‘tish davri avlodi deb ko‘p ishonch bildirilmagan. Biz mustamlaka davrda yashamaganmiz. Biz mustamlakani hech qachon qabul qilmagan avlodmiz, chunki u davrda bo‘lmaganmiz. Shuning uchun yurtimizni doim ozod , farovon bo‘lishini istaymiz. Bu yo‘lda hamma harakat qilishi lozim. Bunda bizga toza havo, toza qon, toza yurak kerak.

Yuqorida siz, azizlarga adabiy kechaning qaymoqlarini keltirishga harakat qildim. Ammo suhbat asnosidagi atmosferani his qildirishga kaminaning qalami o‘ziga o‘xshash qiladi. Suhbat so‘ngida yana bir nechta savollarga javoblar olindi hamda eng yaxshi savol mualliflari yozuvchining esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanishdi. Barchaning yuzida tabassum ila adabiy kecha yakunlandi.

Roman haqida deyarli har bir suhbat, maqola, taqrizlar bilan tanishib chiqdim. Ularning har biridan o‘zgacha qarash, fikrlarni o‘qidim, o‘zimning ham olamcha xulosalarimni to‘pladim. Ayniqsa, asarda Sattor Jabborning quyidagi so‘zlari go‘yo yonginamda turib aytilganidek, quloqlarim ostida jaranglaydi. ”Vujudimizda faqat Vatan istagi bor, xolos. Bu shunchalar katta kuchki, yuragimizni bosib to‘xtatib qo‘ysa, qonimizda aylanaveradi, qonimizni to‘xtatsa, ruhimizda aylanaveradi. Vatan istagi bir o‘limdan ustunroqdir!..” Yoki roviyning Vatan uchun chekkan iztirobi hech bir o‘quvchini befarq qoldirmaydi: ”...Vatan nafs

bilan sevilmaydi! Vatan hirs bilan asralmaydi! Vatanga jon beriladi, faqat jon, faqat jon, faqat jon...”

Xulosa

Dunyodagi eng mashhur, eng qadimiy tarix bizniki. Biz ajdodlarimizdan faxrlanib, mudom ularning tafakkur xazinalaridan bahra olib kelamiz. Istardimki, bugunimiz bilan faxrlanishni, istardimki, kelajak bilan g‘urur tuyushni, Uvaysiy-u Zebunnisolarimizda aqlli telefonlar-u qimmatbaho soatlar yonida kitoblarni ko‘rishni, millat tanazzulga yuz tutmasligi, tugab-bitmasligi uchun ham o‘qishi kerakligini anglashi kerak. Kitob qachon qalb chirog‘i, tafakkur qanotiga aylanadi? Qachonki u javonlardan qo‘llarga, qo‘llardan dillarga ko‘chsa!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Javlon Jovliyev. ”Qo‘rqma”. – Toshkent, 2020.
2. Ulug‘bek Hamdamov. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: ”Fan” nashriyoti, 2007.
3. Bahodir Karim. Lirotragik roman – ”Qo‘rqma” asari haqida. ”Ma’rifat”, 2021.
<http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m7356>
13. Turdiyeva Y. Romaniy tafakkur va asar uslubi. Tamaddun Nuri, ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal, (ISSN 2181-8258). – Beruniy, 2023. - № 7. (46) – B. 110 – 113.
14. Ikrom Otamurodning yolg‘izlik falsafasiga yondashuvida ruhiyat talqinlari
15. Salima Cho‘yanovna Jumayeva. Ikrom Otamurodning yolg‘izlik falsafasiga yondashuvida ruhiyat talqinlari. FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2010-720X. 2025/8/1. Nokus. 103-105.
16. Turdiyeva, Y. The phenomenon of artistic style in uzbek literature. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 6(12), 22-23.
17. Ibragimova, D. I. (2024). An analysis of isajon sulton’s historical

prose: era, heroes, themes, and ideas. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 120-127.

18. Mahmudova, S. (2024). Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ijodkor obrazi talqini. «*acta nuuz*», 1(1.1. 1), 288-292. S Mahmudova - «ACTA NUUZ», 2024.
19. Saifnazarov, I., Musaev, F., Khusanov, B., Ernazarova, Y., Xujaev, M., Bekbaev, R., & Ochilova, N. (2025). The Impact of Local Community Education on Sustainable Practices in Eco-Tourism Areas. *Natural & Engineering Sciences*, 10(3).
20. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.